

ADABIYOTSHUNOSLIK LUG‘ATIDA QAMROV, HAJM VA DINAMIKA

Boymurodova Sabinabonu Zayniddin qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Jahon adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi
Email: berdiyevasabina847@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunoslik lug‘atining qamrov, hajm, dinamikasi kabi masalalari o‘rganilgan. Mazkur masalalarning yoritilishida adabiyotshunosligimizda keng qo‘llanib kelinyotgan N. Hotamov, B. Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”, D. Quronov va hammualliflarning “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kabilar obyekt sifatida olingan.

Kalit so‘zlar: qamrov, hajm, dinamika, semantik dinamika, miqdoriy dinamika, adabiyotshunoslik

Abstract: this article examines aspects such as the scope, volume, and dynamics of the dictionary of literary studies. The study focuses on widely used reference works in the field of Uzbek literary studies, specifically the “Russian-Uzbek Explanatory Dictionary of Literary Terms” by N. Hotamov and B. Sarimsoqov, and the “Dictionary of Literary Studies” by D. Quronov and co-authors.

Keywords: scope, volume, dynamics, semantic dynamics, quantitative dynamics, literary studies.

Ilmiy atamalarni jamlash, izohlash va tizimga solish vazifasini bajaruvchi adabiyotshunoslik lug‘atlari ma’lum bir davr ilmiy tafakkurining obyektiv ko‘zgusidir. Leksikografik manbaning ilmiy qimmati va akademik salmog‘i asosan uchta tayanch mezon – uning qamrovi, axborot hajmi va ilmiy dinamikasi bilan o‘lchanadi. Ushbu mezonlar ichida “qamrov” masalasi lug‘atning asosiy mohiyatini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Qamrovning keng yoki torligi, uning qaysi sohaga (mumtoz poetika, xorijiy adabiyot, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik) ko‘proq urg‘u qaratgani o‘sha davrdagi ilmiy ustuvorliklar va jamiyatning madaniy-estetik ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Keyingi yillarda adabiyotshunoslik ilmida yangicha uslubda bir qator adabiyotshunoslik lug‘atlari yaratildi va adabiy terminlar yangilandi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda faol qo‘llanilayotgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” va “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitoblaridagi terminlarning qamrov, hajm, dinamikasi masalalarini ko‘rib chiqamiz. Terminlar soni “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” da “Adabiyotshunoslik lug‘ati” dan ko‘ra ko‘proq, faqat badiiy adabiyotga va adabiyotshunoslikka oid terminlar, terminlashgan birikmalar kiritilgan, ularning soni qariyb 2 mingtadir. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da esa 550 ta termin va ularning izohi berilgan.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”ini kuzatadigan bo‘lsak, adabiyotshunoslikning tarixiy, nazariy sohalaridan tashqari bir qancha adabiyotshunoslikka yaqin bo‘lgan sohalarga mansub terminlar hisobiga lug‘atning qamrov doirasi kengaygan.

Lug‘atning qamrov doirasini kengaytirgan omil – turli xalqlarning adabiy janrlar va oqimlarga doir milliy terminlarini aks ettirganidir. Bunday terminlar qatoriga amfibraxiy, anaklaza, anakruza, andarz, atellana, aretologiya, arsis, bakxiy, bayati, verizm, jagati, diatriba, zuhdiyat, kasa, pantun, rondel kabi va boshqalarni olishimiz mumkin.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Андарз – andarz. Qadimgi va o‘rta asr fors-tojik adabiyotida keng tarqalgan didaktik janrlardan biri, nasihatnoma. Masalan, “andarzi Ardasher Bobakon”.[1]

Ателлана – atellana. Qadimgi rim xalq tomoshasi; oddiy xalq hayotini tasvirlovchi, ko‘pincha siyosiy xarakterga ega bo‘lgan qisqa sahna asari. U Atella shahrida paydo bo‘lib, rivojlangani uchun shu shaharga nisbat berib atalgan va italyan komediyalariga asos bo‘lgan.[2]

Джагаты – jagati. Qadimgi hind poeziyasining she’riy vazni: to‘rtinchi yoki beshinchi hijosi sezurali bo‘lgan o‘n ikki hijoli to‘rtlik.[3]

Каса – kasa. O‘rta asrlar koreys poeziyasining asosiy janrlaridan biri bo‘lib, u band tuzilishiga ega bo‘lmagan misralardan iborat bo‘lgan. Shuning uchun ham ularning hajmi bir necha misradan tortib bir necha yuz misraga qadar cho‘zilgan.[4]

Mazkur terminlarda millatning milliy o‘ziga xos xususiyatlari aks etgan bo‘lib, adabiy hodisaning ilmiy ta’rifi, badiiy misollar shu millat adabiyotshunosligidan kelib chiqilgan.

Atamaning milliy xarakterdaligi: “Gusani” (arman), “Nebilitsa” (rus), “Diyamb” va “Dixoriy” (antik she’riyat) kabi terminlar o‘zbek she’riyati va adabiy amaliyoti uchun bevosita xizmat qilmaydigan, faqat muayyan bir xalqlar adabiyotini o‘rganishdagina axborot beruvchi estetik birliklardir. Leksikograflar milliy kitobxon ehtiyojidan kelib chiqib, bunday o‘zga madaniyatga xos terminlar izohiga ortiqcha joy ajratishni lozim topishmagan va tejamkorlik prinsipiga amal qilishgan.

Atamaning tor ixtisoslashgani va vazifasining cheklanganligi: “Diyamb” va “Dixoriy” kabi atamalar faqat antik she’r tizimidagi mezonlarni anglatadi. Ularning o‘zbek adabiyotshunosligida keng ildiz otgan tushunchaviy tarmoqlari yo‘q. Shu bois, ular uchun birgina aniq ta’rif berish va maqolaga havola berishning o‘zi yetarli hisoblangan.

Terminning polifunksionalligi: hikoya, doston, tragediya va drama adabiyotshunoslik fani arxitekturasini belgilovchi, o‘z ichiga yuzlab ichki terminlarni va murakkab nazariy muammolarni qamrab oluvchi fundamental janrlardir. Ularning tabiatini qisqa ta’rif bilan ochib bo‘lmaydi. Shuning uchun mualliflar atama tahlilida janrning genezisi, tipologiyasi, tarkibiy elementlari (syujet, kompozitsiya, xarakter) va evolyutsiyasini bir vaqtning o‘zida qamrab olishga majbur bo‘lishgan. Maqolalarda atamaning ilmiy ta’rifidan ko‘ra, o‘sha atama ifodalagan voqelikning tarixiy-xronologik bayoniga keng o‘rin berilgan. Chunonchi, “Tragediya” yoki “Drama” terminlarining maqolalarida Esxil, Sofokl, Shekspir, Molyer, Pushkin, Hamza va Uyg‘un ijodiga to‘xtalish, tarixiy davrlar tasnifini berish sof leksikografik izoh chegarasidan chiqib ketilgan.

Lug‘atda maqolalar hajmining har xilligi bir tomondan obyektiv omillar (terminning fandagi o‘rni, tabiati) bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, subyektiv leksikografik sabablar (ensiklopedizmga ortiqcha berilish va mafkuraviy qoliplar) tufayli yuzaga kelgan. Bu esa zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi oldiga terminologik maqolalar hajmini me’yorlashtirish, ortiqcha tarixiy-biografik ma’lumotlarni qisqartirib, e’tiborni konseptual-nazariy mohiyatga qaratish kabi muhim vazifalarni qo‘yadi.

O‘zbek adabiyotshunoslik leksikografiyasining mustaqillik davridagi taraqqiyot dinamikasini tadqiq etishda D. Quronov va hammualliflar tomonidan tayyorlangan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”

[1] Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.33.
[2] Шу китоб. – Б.37.
[3] Шу китоб. – Б.91.
[4] Шу китоб. – Б.134.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

mikrostrukturaviy hajm va makrostrukturaviy qamrov sifat jihatidan yangi bosqichni yuzaga chiqardi. Agar XX asr oxirida yaratilgan N. Hotamov va B. Sarimsoqov lug‘atida qamrovning tarqoqligi hamda maqolalar hajmidagi nomutanosiblik kuzatilgan bo‘lsa, D. Quronov lug‘atida leksikografik mezonlar va tanlovchan metodologiya ustuvorlik qildi.

Lug‘atning terminlar qamrovini guruhlashtiradigan bo‘lsak, quyidagicha tasniflanadi:

1. Milliy mumtoz poetika asoslari (aruz, bahr, qofiya, radif, g‘azal, ruboiy, mustazod…)
2. Umumnazariy va uslubiy tushunchalar (obraz, syujet, adabiy tur va janrlarga doir terminlar…)
3. Jahon adabiy jarayoni va tipologiyasi (adabiy yo‘nalish va oqimlar)

O‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyoti misolida lug‘atlardagi dinamikani ikki asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin:

Miqdoriy dinamika:

Badiiy tafakkurning o‘zgarishi bilan fanga yangi atamalar kirib keladi va o‘z funksiyasini yo‘qotganlari muomaladan chiqadi. Masalan, N. Hotamov, B. Sarimsoqov lug‘ati davrida fanning faol qatlamini tashkil etgan “sotsialistik realizm”, “partiyaviylik”, “sinfiylik”, “proletkult” kabi atamalar bugungi kunda o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotib, tarixiy arxaizmlarga aylandi. D. Quronov va hammualliflar lug‘ati davriga kelib esa mustaqillik va globallashuv tufayli fanga “intertekstuallik”, “postmodernizm”, “arxetip”, “magik realizm” kabi mutlaqo yangi konseptual birliklar kirib keldi va lug‘at tarkibidan joy oldi.

Semantik dinamika:

Bu jarayonda terminning o‘zi saqlanib qoladi, biroq uning ichki izohi va nazariy qamrovi tubdan o‘zgaradi. Masalan, “Doston” yoki “Tragediya” atamalarining XX asrning 80-yillaridagi leksikografik talqini bilan 2010-yillardagi talqini o‘rtasida juda katta tafovut bor. Dinamika tufayli atama bitta mafkuraviy qolipdan chiqib, sof estetik va umumbashariy mezonlar bilan qayta izohlanadi.

Muxtasar qilib aytganda, yuqoridagi qamrov, hajm va dinamika tahlillari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot jamiyatida adabiyotshunoslik atamalarining ko‘payish tezligi bosma lug‘atlarning sig‘im imkoniyatlaridan o‘zib ketdi. Ilmiy terminologiyadagi doimiy yangilanishlarni to‘laqonli aks ettirish, atamalar hajmini ixtiyoriy ravishda kengaytirish va ularning milliy hamda xalqaro qamrovini ta’minlash uchun fanga yangi avlod leksikografik manbalari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abrams M. H. A Glossary of Literary Terms. Seventh Edition. –USA: Cornell University, 1999. – 682 p.
2. Childs, Peter and Roger Fowler. The Routledge Dictionary of Literary Terms. London and New York: Routledge Taylor and France Group. – 2006. –486p.
3. Minayeva L.V. English Lexicology and Lexicography. — New York: Higher school, 2003. –322 p.
4. Watson E. A. A study of selected English terms from 1650-1800. – N.Y., 1987. –247 b.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.